

**BOLALAR ORASIDA KENG TARQALGAN KASALLIKLAR-RAXIT
KASALLIKLARI SABABLARI PROFILAKTIKASI**

Sunnatullayeva Dilnoza Marat qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tibbiyot fakulteti 2-kurs Pediatriya
yo'nalishi talabasi*

Ergashev Elbek Orif o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raxit kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, tashxislash usullari va davolash yo'llari tahlil qilinadi. Kasallikning oldini olish choralari, to'g'ri ovqatlanish, quyosh nuri ta'siri, ahamiyati va vitamin D3 qo'shimchalaridan foydalanish haqida. Ushbu maqola pediatriya va tibbiyot soxasi mutaxasislari uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: vitamin D3 yetishmovchiligi, raxit, atsidoz, kifoz, ostogenez, kraniotabes, osteoid

Абстрактный В данной статье рассматриваются этиология, патогенез, клинические проявления, методы диагностики и способы лечения рахита. Также обсуждаются меры профилактики заболевания, включая правильное питание, значение воздействия солнечного света и использование добавок витамина Д3. Эта статья будет полезна специалистам в области педиатрии и медицины. Ключевые слова: дефицитный рахит, ацидоз, кифоз, остеогенез, краниотабес, остеод, специфическое и неспецифическое лечение.

Ключевые слова: дефицит витамина D3, рахит, ацидоз, кифоз, остеогенез, краниотабесы, остеод

Abstract; This article analyzes the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic methods and treatment approaches for rickets. It also discusses disease prevention measures, including proper nutrition, the importance of sunlight exposure, and the use of vitamin D supplements. This article will be useful for specialists in pediatrics and medicine.

Keywords: vitamin D3 deficiency, rickets, acidosis, kyphosis, osteogenesis, craniotabes, osteoid

Raxit-bolalarda D vitamini yetishmovchiligi natijasida rivojlanadigan kasallik bo'lib, suyak to'qimalarining to'g'ri shakillanishi va mustaxkamligi buzilishi bilan tavsiflanadi. Raxit ko'pincha yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Raxit umumiy organizmda moddalar almashinuvi, reaktivlik jarayoni o'zgarishi bilan kechib, bemor

bolada kasalliklarga qarshi kurashish holatlari pasaygan bo'ladi. Raxit kasalligi bola organizmida vitamin D,Ca,Mg kabi qator mikroelementlar ba'zi aminokislotalar bilan yetarli ta'minlanmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu yetishmovchiliklarga bolaning chala tug'ilishi, fermentativ yetishmaslik, hazm a'zosi, buyraklar va endokrin bezlar faoliyati o'zgarishi, infeksiyon kasalliklar zamin yaratishi mumkin. Raxitda vitamin D yetishmasligi sababli P va Ca almashinuvi buzilib, ular ichakdan yetarli so'rilmaydi va qonda, hujayra tashqaridagi suyuqlikda va suyakda kalsiy, fosfor miqdori kamayadi. Buyrak orqali fosfatlarning chiqarilishi ko'payib, atsidoz holati yuzaga keladi. Bu holat fosfor kalsiy tuzlarini suyaklarni o'sish zonasiga yig'ilishiga to'sqinlik qilishi bilan bir qatorda, ularni suyakdan yuvilib chiqarilishini kuchaytiradi, normal ostogenez jarayoniga to'sqinlik qiladi. Natijada suyaklar yumshoq, egiluvchan, shakli osongina o'zgaruvchan bo'ladi. Raxit kasalligi belgilari ko'pincha 1- 1.5 oylik davrida boshlansa ham 1-yoshgacha kasallanish xavfi saqlanadi. Kasallikning boshlanish davriga vegetativ asab tizimi funksional holatining buzilishiga xos belgilar kuzatiladi. Bola tez cho'chiydigan, bezovta, injiq bo'lib qoladi. Uyquasi buzulib uyquda, qattiq tovush, yorqin nur ta'siriga seskanib ketadigan bo'lib, bemorni bezovta qiladi. Bola boshini yostiqqa ishqalashidan ensa sohasidagi sochlar to'kila boshlaydi. Bu davr 2-3 hafta davom etadi. Kasallik vaqtida aniqlanib, davolanmasa u kuchayib avjiga chiqqan davri boshlanadi. Bunda yuqoridagi o'zgarishlar yanada rivojlanib, kasallikka xos suyak tizimi o'zgarishlari va ichki a'zolar faoliyatini buzilishlari kuzatiladi. Bosh chanog'i yumshab, ensa sohasida kraniotables paydo bo'ladi. Osteoid to'qimalar giperplazyasi sababli peshona va chakka do'ngliklari paydo bo'ladi. Bosh to'rtburchak shakl (caput quadratum)ga o'xshab qoladi. Raxitda ortiqcha osteoid to'qimalarning paydo bo'lishi natijasida boshning tepa qismi do'mbayib bosh egar shakliga (caput natiforme) kiradi. Raxitning yana alomatlaridan ko'krak qafasi shakli o'zgarishi, oyoq qo'llarning egilishi, raxit do'mboqchalari bo'lishi kabi belgilar kuzatiladi. Raxitda umurtqa pog'onasida yoysimon qiyshayishi-kifoz kuzatiladi. Oyoqlar X yoki O shaklida bo'lishi, mushaklarda zaiflik, suyak og'rig'i ayniqsa oyoq orqa suyaklarida bo'ladi, bola tez charchab harakat qilishda qiyinchiliklari bo'ladi. Raxit (rickets) kasalligida tishlar kechroq chiqadi, ular zaif bo'ladi, tishlarning shakli ham o'zgarib ketadi. Bunday bolalar ko'pincha yuqori haroratda yuradi.

Raxit kasalligining etiologiyasi;

Vitamin D-yetishmovchiligi raxitni keltirib chiqaruvchi sabablar :

1 Quyosh nurining yetishmasligi, toza havoda sayr qilmaslik, organizmida hosil bo'ladigan 90% endogen vitamin D3 quyosh nuri ta'sirida terida hosil bo'ladi.

2 Ovqat faktorlari-bolani sun'iy ovqatlantirishda adaptatsiyalanmagan aralashmalardan foydalanish, uzoq vaqt sutli ovqatlantirish 1L ona sutida 50 70XB, sigir sutida 20 30XB vitamin D3 bor. Sigir suti tarkibida fosfatlar miqdorining ko'pligi kalsiy va fosfor nisbatini o'zgartiradi. Natijada kalsiyning ichaklardan so'rilishiga monelik qiladi.

3 Perinatal faktorlar-chala tug'ilgan bolada vitamin D, Ca va P zaxirasi kam bo'ladi. Onadan Ca va P ning yo'ldosh orqali bolaga intensiv ravishda o'tishi 36 haftaligidan boshlanadi. Postnatal davrda o'sish esa chala tug'ilgan bolalarda yuqori bo'ladi. Bu esa Ca, P va vitamin D ga ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarga ona suti bilan birgalikda vitamin D (20-25mg sutkasiga) ovqat ratsioniga kiritish raxitni uchrash chastotasini kamaytiradi.

Kasallikning tarqalishi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Angilyada 80%, AQSHda 87.7%,

Germaniyada 74.2%, Rossiyada 80-90% gacha bolalar raxit kasalligi bilan xastalanganligi qayd qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida klimatogeografik sharoitdan kelib chiqqan holda raxitning uchrash chastotasi 20% dan 65% gacha tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Yaponiya) oziq maxsulotlarini vitaminlashtirish yaxshi yo'lga qo'yilganligi sababli, raxit muammosi batamom yo'qolgan deb qarashadi. F.V Demin ma'lumotlariga ko'ra, raxit kasalligining o'ta og'ir, og'ir formalari yo'qotilingan bo'lishi mumkin, lekin eng yengil formalari 1 yoshgacha, ayniqsa 3-4 oylikdan 100% bolalarda uchraydi. Raxitning yengil darajasi kasallik sifatida emas, parafiziologik holat sifatida qaraladi. Organizm yetilishi bilan o'z o'zidan yo'qoladi. 25-55% bolalarda o'rta og'irlikdagi raxitni aniqlash mumkin. P.V. Novikov fikricha Rossiyada yengil o'rtacha og'irlikdagi raxit 50-70% bolalarda uchraydi. Chala tug'ilgan bolalarda esa raxit 75-85% uchraydi. O'zbekistonda ham keng tarqalgan bo'lib, 2007 yil ma'lumotlariga ko'ra, raxit 27% tashkil qilgan. Raxit kasalligining darajasi, yashash sharoiti, iqtisodiy ta'minot, ongiy taraqqiyoti va salbiy ta'sir etuvchi omillar ahamiyati katta.

Davolash usullari.

Raxit kasalligining davolashni asosiy yo'nalishi unga o'z vaqtida tashxis qo'yilish va to'g'ri davolashda muxim sanaladi. Davolash yo'nalishi maxsus va yordamchi usullar bilan bo'ladi. Spetsifik bu quyosh nuridan vaqtida va to'g'ri foydalanish va vitamin D dori vositalarini berilishi bilan. Qo'shimcha usullarga bu bolani to'g'ri ratsional ovqatlantirish. Uglevodga boy va xamirli ovqatlarni chegaralash. Uglevodli ovqatlar atsidozni kuchaytiradi.

Quyosh nuri ta'siri-so'nngi IAP (Indian Academy of Pediatrics) ko'rsatmalariga ko'ra chaqaloqlar uchun quyosh nuri ta'siri 17-30daqqa katta yoshdagi bolalar uchun 30-45 daqiqa. Ideal vaqt 11:00 dan 15:00 gacha bo'lib, xaftasiga 5 marta tavsiya etiladi. Pediatirlar barcha chaqaloqlarga har kuni 400 IU vitamin D berilishini ta'minlash kerak (tug'ilganidan 1 yoshgacha) deydilar(oziquqlantirish usulidan qat'iy nazar). 1 yoshdan katta bolalar uchun vitamin D qo'shimcha iste'moli shart emas. Kunlik o'rtacha talab 400-600 IU/kun quyosh nuri va ovqatlantirish orqali qondirilishi kerak. Yuqori xavf guruxiga kiruvchi bolalar miya falaji,nerv mushak kasalliklari,surunkali buyrak,malabsorbsiya sindromi,uzoq muddatli steroid yoki antiepileptik dorilar bilan davolanilganda har kuni kamida 400 IU vitamin D qo'shimcha iste'mol qilishi kerak.

Xulosa-Raxit kasalligi bolalarda suyak tizimi rivojlanishining buzilishi bilan kechadigan patologiya bo'lib,asosan D vitamini yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi. Bu kasallik suyaklar yumshashi,deformatsiyasi, ushaklar zaifligi,rivojlanish sekinlashish bilan namoyon bo'ladi. Raxitning oldini olish uchun bolalarni quyosh nuri ta'sirida yetarlicha bo'lishini ta'minlash zarur. Raxit-bu davolasa bo'ladigan kasallik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1 Bolalarda raxit kasalligi. D.X.Mamatkulova,O.A.Sharipova (2022)
- 2 Bolalar kasalliklari propodevtikasi. B.Qoraxujayev
- 3 Bolalar kasalliklari prodevtikasi. Arziqulov Andijon 2017
- 4 Bolalar kasalliklari prodevtikasi. Daminov 2012 nashr